

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227




IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 8

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

ZAMONAVIY YOSHLAR LIRIKASIDA BEGONALASHUV VA RUHIY YOLG'IZLIKNING POETIK IFODASI

Jurayev Umidjon Rahimjonovich

Qo'qon universiteti, mustaqil izlanuvchi.

e-mail: umidjones12@gmail.com ORCID: <https://orcid.org/0009-0008-3518-0124>

Annotatsiya.

Maqolada zamonaviy o'zbek yoshlar she'riyatida begonalashuv, ruhiy yolg'izlik, o'zlikning bo'linishi va insonning shahar hamda jamiyat ichida o'zini begona his etishi masalalari tahlil qilinadi. Bobur Elmurod, Suhrob Ziyo va Shahriyor Shavkat she'rlari tadqiqot materiali sifatida olingan. Z. Baumanning "suyuq modernlik" konsepsiyasi zamonaviy hayotdagi beqarorlik va ijtimoiy aloqalarning zaiflashuvini, G. Simmelning metropol haqidagi qarashlari esa shahar muhitida shaxsning ruhiy himoyalaniishi va masofalanish holatini tushuntirish uchun metodologik tayanch sifatida qo'llanilgan. Tahlilda yolg'izlik faqat psixologik kayfiyat emas, balki ijtimoiy muhitning shaxs ongida aks etgan badiiy natijasi ekanligi ko'rsatib berilgan. Yosh shoirlar bu holatni yo'l, devor, qorong'ilik, ko'z, fotoapparat, osmon va ko'ngil singari obrazlar orqali ifodalaydi. Natijada zamonaviy yoshlar lirikasida begonalashuv shaxsni jamiyatdan uzoqlashtiruvchi holat bo'lish bilan birga, uning o'zligini qayta anglashiga turtki beruvchi poetik mexanizm sifatida ham namoyon bo'lishi asoslangan.

Kalit so'zlar: yoshlar she'riyati, begonalashuv, yolg'izlik, urban makon, ruhiy inqiroz, o'zlik, lirik subyekt, modernlik, poetik obraz, Bobur Elmurod, Suhrob Ziyo, Shahriyor Shavkat.

ПОЭТИЧЕСКОЕ ВЫРАЖЕНИЕ ОТЧУЖДЕНИЯ И ДУШЕВНОГО ОДИНОЧЕСТВА В СОВРЕМЕННОЙ МОЛОДЁЖНОЙ ЛИРИКЕ

Жураев Умиджон Рахимжонович

Кокандский университет, независимый исследователь.

Аннотация.

В статье анализируются проблемы отчуждения, душевного одиночества, расщепления идентичности и ощущения человеком собственной чуждости в пространстве города и общества в современной узбекской молодёжной поэзии. Материалом исследования послужили стихотворения Бобура Элмурода, Сухроба Зиё и Шахриёра Шавката. Концепция «текущей современности» З. Баумана используется в качестве методологической основы для объяснения нестабильности современной жизни и ослабления социальных связей, а взгляды Г. Зиммеля на метрополис — для интерпретации психологической самозащиты и дистанцирования личности в городской среде. В ходе анализа показано, что одиночество представляет собой не только психологическое состояние, но и художественное отражение воздействия социальной среды на сознание личности. Молодые поэты выражают это состояние посредством таких образов, как дорога, стена, темнота, глаза, фотоаппарат, небо и душа. В результате обосновывается, что в современной молодёжной лирике отчуждение выступает не только как состояние, отдаляющее личность от общества, но и как поэтический механизм, побуждающий её к переосмыслению собственной идентичности.

Ключевые слова: молодёжная поэзия, отчуждение, одиночество, городское пространство, духовный кризис, идентичность, лирический субъект, современность, поэтический образ, Бобур Элмурод, Сухроб Зиё, Шахриёр Шавкат.

THE POETIC EXPRESSION OF ALIENATION AND EMOTIONAL LONELINESS IN CONTEMPORARY YOUTH POETRY

Jurayev Umidjon Rahimjonovich

Kokand University, Independent Researcher.

Abstract.

The article analyzes alienation, emotional loneliness, fragmentation of the self, and the individual's sense of estrangement within urban and social environments in contemporary Uzbek youth poetry. The poems of Bobur Elmurod, Suhrob Ziyo, and Shahriyor Shavkat serve as the primary material for the study. Z. Bauman's concept of "liquid modernity" is employed as a methodological framework for explaining the instability of contemporary life and the weakening of social ties, while G. Simmel's views on the metropolis are used to interpret psychological self-protection and distancing in urban environments. The analysis demonstrates that loneliness is not merely a psychological state

but also a literary manifestation of the impact of the social environment on individual consciousness. Young poets express this condition through such images as the road, wall, darkness, eyes, camera, sky, and soul. The study concludes that alienation in contemporary youth poetry functions not only as a condition that distances the individual from society but also as a poetic mechanism that encourages the reconsideration and rediscovery of the self.

Keywords: youth poetry, alienation, loneliness, urban space, psychological crisis, selfhood, lyrical subject, modernity, poetic image, Bobur Elmurod, Suhrob Ziyo, Shahriyor Shavkat.

Kirish. XXI asr insonining kundalik hayoti aloqa vositalarining ko'payishi bilan birga, paradoksal tarzda ruhiy yolg'izlik va begonalashuvning yangi ko'rinishlarini ham yuzaga chiqardi. Zamonaviy she'riyat bu holatni ijtimoiy statistika emas, insonning ichki tajribasi sifatida ifodalaydi. Yosh shoirlar poetikasida shahar, yo'l, devor, odamlar orasidagi masofa, ko'ngil va tashqi ko'rinish bilan ichki haqiqat o'rtasidagi uzilishlarning qayta-qayta uchrashi bejiz emas. Bu obrazlar avlodning o'z zamoniga munosabatini ifodalovchi estetik belgilar sifatida qaralishi mumkin.

Zamonaviy yoshlar lirikasida begonalashuv hodisasining kuchayishi insonning ijtimoiy mavqeyi, kommunikativ imkoniyatlari va ichki dunyosi o'rtasidagi murakkab munosabatlar bilan bog'liq. Bugungi shaxs tashqi jihatdan jamiyat bilan faol aloqada bo'lsa-da, uning ichki kechinmalari, qadriyatlar va mavjudlik haqidagi savollari ko'pincha atrof-muhit bilan to'liq uyg'unlashmaydi. Shu sababli zamonaviy she'riyatda "yolg'iz inson" obrazi odamlar bilan aloqasi uzilgan shaxs sifatida emas, balki ijtimoiy muhit ichida yashab, ayni paytda undan ruhiy jihatdan masofalashgan lirik subyekt sifatida shakllanmoqda.

Mazkur jarayon, ayniqsa, yosh avlod poetik tafakkurida yaqqol ko'zga tashlanadi. Chunki yosh shoir uchun tashqi olamni anglash jarayoni o'z "meni"ni anglash jarayoni bilan parallel kechadi. Jamiyat tomonidan taklif etilayotgan tayyor qadriyatlar, hayotiy mezonlar va ijtimoiy rollar bilan individual ehtiyoj va qarashlar o'rtasidagi nomuvofiqlik lirik konfliktning muhim manbasiga aylanadi. Natijada begonalashuv faqat jamiyatdan uzoqlashish emas, balki "men kimman?", "mening bu olamdagi o'rnim qanday?" kabi mavjudlikka oid savollarning kuchayishi orqali ham namoyon bo'ladi.

Bunday poetik holatda ruhiy yolg'izlik va o'zlikni izlash bir-biridan ajralmaydi. Lirik qahramon tashqi muhitdan ma'lum darajada chekingan sari o'z ichki olamiga murojaat qiladi, xotira, tabiat, shahar, vaqt va insoniy munosabatlar haqida qayta mushohada yuritadi. Demak, yolg'izlikning poetik funksiyasi faqat iztirobni ifodalash bilan cheklanmay, insonning o'z mavjudligini anglashiga xizmat qiluvchi ichki refleksiya maydonini yaratishdan ham iborat. Shu jihatdan begonalashuv motivi zamonaviy she'riyatda destruktiv holat bilan bir qatorda, ijodiy va falsafiy anglashning manbai sifatida ham namoyon bo'ladi.

Mavzuning yana bir muhim jihati begonalashuvning poetik obrazlar orqali bilvosita ifodalanishidir. Zamonaviy yosh shoirlar ruhiy holatni ko'pincha bevosita "men yolg'izman" tarzida ifodalashdan ko'ra, uni makon, predmet va tabiat hodisalariga yuklaydi. Devor ajralish chegarasini, yo'l doimiy izlanish va beqarorlikni, tun ichki noaniqlikni, ko'z kuzatuvchanlik va begonalikni, osmon esa chegarasiz makon bilan birga erishib bo'lmaydigan ruhiy erkinlikni anglatishi mumkin. Shu tariqa tashqi predmetning oddiy nominativ ma'nosi kengayib, lirik subyektning ruhiy holatini ifodalovchi ramziy-semantik birlikka aylanadi.

Shuningdek, zamonaviy yoshlar she'riyatida begonalashuvning milliy-madaniy mazmunini ham alohida hisobga olish lozim. G'arb adabiyotida shakllangan ekzistensial yolg'izlik yoki mutlaq begonalik modeli o'zbek poetik tafakkuriga to'liq ko'chmaydi. O'zbek lirik qahramoni ko'pincha oila, Vatan, tarixiy xotira, til, ma'naviyat va milliy qadriyatlar bilan aloqasini saqlab qoladi. Shuning uchun uning begonalashuvi mutlaq uzilishdan ko'ra, yo'qolgan ma'naviy yaxlitlikni izlash, mavjud ijtimoiy muhit bilan ichki qadriyatlar o'rtasidagi muvozanatni qayta tiklash ehtiyoji sifatida talqin qilinadi.

Shu nuqtayi nazardan, Bobur Elmurod, Suhrob Ziyo va Shahriyor Shavkat ijodini o'zaro qiyoslash zamonaviy yoshlar lirikasida begonalashuvning umumiy va individual poetik xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. Ularning she'rlarida tashqi voqelikning ichki kechinmaga aylanishi, makon va predmetlarning psixologik semantika kasb etishi, lirik "men"ning o'zligi bilan dialogga kirishishi hamda jamiyat bilan ichki masofaning kuchayishi turli badiiy shakllarda namoyon bo'ladi. Shu jihatdan mazkur ijodkorlar poetikasini o'rganish zamonaviy o'zbek she'riyatida insonning ruhiy holati va ijtimoiy mavjudligi o'rtasidagi munosabatlarni yanada chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar sharhi. Zamonaviy yoshlar lirikasida begonalashuv va ruhiy yolg'izlik hodisalarini tadqiq etishda, avvalo, ushbu tushunchalarning falsafiy, sotsiologik va adabiyotshunoslikdagi nazariy asoslariga murojaat qilish zarur. Begonalashuv masalasi dastlab falsafiy tafakkur doirasida insonning o'z mehnati, jamiyati, boshqa insonlar va o'z "meni" bilan munosabatidagi uzilishlarni ifodalovchi kategoriya sifatida shakllangan. Keyinchalik mazkur tushuncha sotsiologiya, psixologiya va adabiyotshunoslikka ko'chib, badiiy qahramonning jamiyat, muhit va o'zlik bilan munosabatlarini tahlil qilishning muhim nazariy vositasiga aylandi. Shu jihatdan zamonaviy o'zbek yoshlar she'riyatidagi yolg'izlikni faqat individual ruhiy kechinma sifatida emas, balki ijtimoiy va madaniy muhit bilan bog'liq murakkab poetik hodisa sifatida talqin qilish imkoniyati yuzaga keladi.

Begonalashuv nazariyasining muhim manbalaridan biri Karl Marks qarashlari bilan bog'liq bo'lib, unda insonning o'z faoliyati va ijtimoiy mavjudligidan uzoqlashuvi muayyan ijtimoiy munosabatlarning mahsuli sifatida izohlanadi. Marks begonalashuvni insonning o'z mehnati mahsuli, faoliyati, boshqa insonlar va o'z mohiyatidan uzoqlashishi bilan bog'laydi [3; 70–81-b.]. Mazkur nazariy yondashuv adabiy matn uchun bevosita poetik model bermasa-da, lirik subyektning tashqi ijtimoiy muhit bilan ichki "men"i o'rtasidagi ziddiyatni tushuntirish uchun muhim metodologik asos yaratadi. Ayniqsa, zamonaviy yoshlar she'riyatida insonning odamlar orasida bo'la turib, o'zini ulardan ajralgan holda his qilishi ushbu

nazariy nuqtayi nazardan ijtimoiy munosabatlarning shaxsiy ongda badiiy aks-sadosi sifatida qaralishi mumkin.

Begonalashuvning zamonaviy shakllarini tushuntirishda Zygmunt Bauman konsepsiyasi alohida ahamiyatga ega. Olim "suyuq modernlik" sharoitida ilgari nisbatan barqaror bo'lgan ijtimoiy tuzilmalar, munosabatlar va hayotiy strategiyalar tobora o'zgaruvchan tus olayotganini ta'kidlaydi. Uning fikricha, zamonaviy inson doimiy o'zgarish, noaniqlik va beqarorlik sharoitida yashaydi; natijada shaxsning ijtimoiy va ruhiy tayanchlari ham mustahkamligini yo'qotadi [1; 1–15-b.]. Bu qarashlar zamonaviy yoshlar lirikasidagi o'tkinchilik, yo'l, harakat, ayriliq, yolg'izlik, tun va noturg'un makon obrazlarini izohlashda muhimdir. Mazkur obrazlar faqat poetik bezak emas, balki zamonaviy shaxsning beqaror hayot tajribasini ifodalovchi semantik birliklar sifatida namoyon bo'ladi.

Baumanning keyingi tadqiqotlarida zamonaviylik sharoitida insonlararo munosabatlarning ham o'zgaruvchanligi, yaqinlik va masofaning yangi shakllari yuzaga kelishi qayd etiladi. Ayniqsa, shaxsning doimiy ravishda o'z ijtimoiy mavqeyini, munosabatlarini va identitetini qayta qurishga majbur bo'lishi ruhiy beqarorlikni kuchaytiradi [1; 16–31-b.]. Bu jihat yosh shoirlar lirikasidagi "men"ning o'zini izlash jarayoni bilan bevosita bog'lanadi. Lirik qahramonning yolg'izligi tashqi aloqalarning mutlaq yo'qligi emas, balki mavjud aloqalarning uning ichki ehtiyojlarini qondira olmasligi bilan belgilanadi.

Georg Simmelning shahar va inson ruhiyati haqidagi qarashlari ham mazkur mavzu uchun muhim nazariy asoslardan biridir. Simmel metropol hayotida inson juda ko'p sonli tashqi ta'sirlarga duch kelishini, buning natijasida psixik muvozanatni saqlash uchun ma'lum darajada hissiy masofa hosil qilishini ko'rsatadi [2; 409–414-b.]. Metropolning tezkorligi, shovqini va axborotga boyligi insonni bir vaqtning o'zida ko'plab ijtimoiy ta'sirlar bilan to'qnash keltiradi. Natijada shaxsning ichki dunyosi tashqi muhitdan himoyalaniş mexanizmlarini ishlab chiqadi. Mazkur nazariy qarash zamonaviy o'zbek yoshlar she'riyatida shahar, ko'cha, odamlar olomoni, bekat va yo'l kabi makonlarning ruhiy-psixologik ma'no kasb etishini tushuntirishga yordam beradi.

Simmelning "blasé" holati haqidagi qarashlari ham zamonaviy lirik qahramon ruhiyatini tahlil qilishda ahamiyatlidir. Tashqi ta'sirlarning haddan tashqari ko'pligi insonning ayrim hodisalarga hissiy befarqlik bilan munosabatda bo'lishiga olib kelishi mumkin [2; 414–418-b.]. Biroq yoshlar lirikasida bu befarqlik ko'pincha mutlaq hissizlanish shaklida emas, balki ichki norozilik, sukut, kuzatuvchanlik va o'z-o'ziga murojaat tarzida namoyon bo'ladi. Shu sababli zamonaviy lirik subyektning sukuti ham kommunikativ mazmunga ega bo'lib, uning tashqi olam bilan ruhiy masofasini ifodalovchi poetik vositaga aylanadi.

Adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan begonalashuv masalasi modernizm va zamonaviy adabiyot poetikasidagi "outsider", "begona", "yolg'iz shaxs" kabi obrazlar bilan chambarchas bog'liq. Raymond Williams adabiyot va jamiyat munosabatlarini tahlil qilib, badiiy matnni ijtimoiy tuzilmalardan ajratib bo'lmashligini, adabiy tajriba muayyan tarixiy va madaniy sharoitda shakllanishini ta'kidlaydi [3; 11–20-b.]. Ushbu yondashuv yoshlar lirikasidagi ruhiy yolg'izlikni ham davrning ijtimoiy tajribasi bilan bog'liq holda o'rganish imkonini beradi. Demak, lirik "men"ning ichki iztirobi individual holat bo'lishi bilan birga, muayyan avlodning tarixiy-madaniy tajribasini ham ifodalashi mumkin.

O'zbek adabiyotshunosligida zamonaviy she'riyat masalasiga bag'ishlangan tadqiqotlarda yangi avlod ijodkorlarining an'anaviy poetik qoliplardan chekinishi, individual poetik tafakkur va yangi obrazli ifoda shakllariga murojaat qilishi alohida qayd etiladi. Xususan, N. Saitovanning tadqiqotlarida yosh o'zbek shoirlarining voqelikni individual idrok etishi, hayot hodisalarini bevosita tasvirlashdan ko'ra ularning ichki va ramziy ma'nolarini ochishga intilishi kuzatiladi [4; 112–118-b.]. Bu xususiyat begonalashuv va yolg'izlik motivlarini tadqiq etishda, ayniqsa, muhim, chunki zamonaviy shoir ko'pincha ruhiy holatni bevosita nomlash o'rniga uni muayyan predmet, makon yoki tabiiy hodisa orqali ifodalaydi.

R. B. Saidovanning yangi davr o'zbek adabiyotidagi she'r konsepti va shoir siymosiga oid kuzatishlari ham zamonaviy poetik tafakkurda shaxsiy "men"ning mavqeyi kuchayganini ko'rsatadi. Muallif she'riy matnda shoir shaxsiyati, individual idrok va badiiy tasvir o'rtasidagi aloqaning muhimligini ta'kidlaydi [5; 245–251-b.]. Mazkur yondashuv ruhiy yolg'izlikni tahlil qilishda lirik subyektning ichki ovozigacha e'tibor qaratishni talab qiladi. Chunki zamonaviy yoshlar she'riyatida "men" ko'pincha voqelikni tasvirllovchi oddiy kuzatuvchi emas, balki voqelikni o'z ruhiy tajribasi orqali qayta quruvchi subyekt sifatida namoyon bo'ladi.

Bobur Elmurod ijodiga oid adabiy kuzatishlarda shoirning kundalik hayot hodisalarini falsafiy mushohada bilan uyg'unlashtirishi, oddiy predmet va vaziyatlarga yashirin ma'no yuklashi kuzatiladi [6; 3–7-b.]. Shu jihatdan uning poetikasidagi kamera, ko'z, surat, odam va tashqi ko'rinish kabi obrazlar begonalashuvning vizual shakllarini tahlil qilish uchun muhim material beradi. Ayniqsa, ko'rish va ko'rinish o'rtasidagi tafovut lirik subyektning jamiyat tomonidan qabul qilinadigan tashqi manzara bilan uning ichki idroki o'rtasidagi masofani ochib beradi.

Suhrob Ziyo ijodida esa ruhiy holatning tabiat va makon obrazlari orqali ifodalanishi muhim xususiyat sifatida ko'zga tashlanadi. Shoirning ayrim she'rlarida yo'l, yomg'ir, osmon, ko'lmak va ko'ngil kabi obrazlar lirik qahramonning ichki kechinmasi bilan semantik jihatdan bog'lanadi [7; 21–26-b.]. Bunday poetik qurilish tashqi makonning psixologik makonga aylanishini ta'minlaydi. Ya'ni tabiat yoki shahar manzarasi mustaqil tasvir obyekti bo'lib qolmay, lirik subyektning ruhiy holatini aks ettiruvchi "ichki makon" vazifasini bajaradi.

Shahriyor Shavkat ijodiga bag'ishlangan materiallarda esa shoir poetikasida ichki erkinlik, ruhiy izlanish, tarixiy xotira va shaxsning o'zligi bilan bog'liq masalalar muhim o'rin egallashi kuzatiladi [8; 34–40-b.]. Uning she'riy nutqidagi qisqa sintaktik birliklar, obrazlarning kutilmagan birikishi va semantik uzilishlar lirik subyektning ichki beqarorligini ifodalash imkonini beradi. Bunda poetik shakl va mazmun o'rtasida bevosita uyg'unlik yuzaga keladi: qahramonning ichki parokandaligi she'rning sintaktik va ritmik tuzilishida ham aks etadi.

U. Normatovning adabiy ijod va ijodkor shaxsiga bag'ishlangan qarashlari badiiy asarni ijodkorning ma'naviy-ruhiy tajribasi bilan bog'liq holda anglash uchun muhim metodologik asos beradi. Olim ijodkorning badiiy olamida shaxsiy

tajriba, tarixiy muhit va estetik tafakkur o'zaro aloqada namoyon bo'lishini ko'rsatadi [9; 42–49-b.]. Ushbu nuqtayi nazaridan yosh shoirlar lirikasidagi yolg'izlikni faqat psixologik holat sifatida emas, balki davr, shaxs va badiiy tafakkur kesishgan nuqtada yuzaga keluvchi estetik hodisa sifatida baholash mumkin.

Mavjud adabiyotlar begonalashuvni uch asosiy yo'nalishda talqin qilish imkonini beradi. Birinchidan, u ijtimoiy munosabatlarning beqarorligi va shaxsning jamiyatdan masofalanishi bilan bog'liq. Ikkinchidan, u shahar va zamonaviy hayotning tezkorligi natijasida yuzaga keladigan ruhiy himoyalaniish va ichki masofa bilan izohlanadi. Uchinchidan, u badiiy matnda o'zlikni izlash, ichki ovozni anglash va individual poetik pozitsiyani shakllantirish jarayoni sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur uch yo'nalishning kesishishi zamonaviy yoshlar lirikasidagi ruhiy yolg'izlikning murakkab tabiatini ochishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarda Bobur Elmurod, Suhrob Ziyo va Shahriyor Shavkat ijodidagi begonalashuv motivi yaxlit poetik hodisa sifatida qiyosiy o'rganilmagan. Ayniqsa, yo'l, devor, ko'z, fotoapparat, osmon, qorong'ilik va ko'ngil kabi obrazlarning begonalashuv semantikasini shakllantirishdagi o'rni, shuningdek, yolg'izlikning o'zlikni anglash jarayoni bilan aloqasi yetarlicha tizimlashtirilmagan. Mazkur jihat tadqiqotning ilmiy yo'nalishini belgilaydi. Shuning uchun zamonaviy yoshlar lirikasini Bauman va Simmel kabi nazariyotchilarning qarashlari bilan bir qatorda, o'zbek adabiyotshunosligidagi yangi poetik tafakkur haqidagi kuzatishlar asosida o'rganish begonalashuvning milliy-estetik xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot germeneytik, psixopoetik, strukturaviy-semantik va kontekstual metodlarga tayandi. Germeneytik tahlil lirik subyektning ichki holatini va obrazlarning ko'p qatlamli ma'nosini sharhlashga, psixopoetik yondashuv begonalashuv va yolg'izlikning ruhiy mexanizmlarini badiiy matn bilan bog'lashga xizmat qildi. Strukturaviy-semantik metod yo'l, devor, ko'z, fotoapparat, osmon, qorong'ilik va ko'ngil obrazlarining takroriy vazifalarini aniqlashda qo'llandi. Kontekstual yondashuv esa individual kechinmani zamonaviy ijtimoiy hayotning tezkorligi, axborot bosimi va munosabatlarning beqarorligi bilan bog'liq holda talqin qilish imkonini berdi.

Natijalar. Bobur Elmurod she'riyatida begonalashuv ko'pincha ko'rish va ko'rinish o'rtasidagi ziddiyat orqali yuzaga chiqadi. "Fotoapparat va men" she'rida kamera odamlarni chiroyli va xotirjam holatda ko'rsatadi, lirik qahramon nigohi esa qarilik, zaiflik va hayotning vaqt bilan bog'liq yo'qotishlarini ko'radi [6]. Fotoapparat shu tariqa tashqi reallikni estetizatsiya qiluvchi, inson nigohi esa yashirin haqiqatni ochuvchi qarama-qarshi semantik markazga aylanadi. Lirik "men"ning muammosi odamlar orasida yolg'iz qolishdan ko'ra, ular ko'rayotgan dunyo bilan o'zi ko'rayotgan dunyo o'rtasidagi farqdir. Bu gnoseologik begonalashuv qahramonni ruhiy jihatdan ajratib qo'yadi.

Suhrob Ziyo ijodida begonalashuv yanada ichki xarakterga ega. Uning bir qator she'rlarida "ko'ngil" va "vujud" qarama-qarshi qo'yilib, insonning ichki erkinligi bilan jismoniy-ijtimoiy mavjudligi o'rtasidagi taranglik tasvirlanadi [7]. "Bu dunyo meniki, seniki emas" mazmunidagi takrorlar makonning egasizligini, insonning o'zi yashayotgan dunyoda ham mutlaq mansublikni his qila olmasligini ko'rsatadi. Yo'l, yomg'ir, osmon va ko'lmak singari obrazlar lirik qahramon ruhiyati bilan birga harakat qiladi. Natijada tashqi tabiat ham begonalashuv hissining poetik ekvivalentiga aylanadi.

Shahriyor Shavkat she'riyatida esa o'zlikni izlash keskin, ba'zan parchalangan sintaksis va qisqa semantik zarbalar orqali ifodalanadi [8]. Uning she'riy nutqida tana, xotira, tun, nur va o'lim obrazlari yonma-yon kelib, lirik subyektning barqaror markazga ega emasligini ko'rsatadi. Bu poetik parokandalik mazmunning o'zi bilan uyg'un: zamonaviy shaxsning o'zini yaxlit his qila olmasligi she'rning sintaktik va ritmik tuzilishida ham namoyon bo'ladi.

Uchala shoir ijodida begonalashuvning umumiy belgisi "men" va tashqi olam o'rtasidagi masofaning kuchayishidir. Biroq bu masofa faqat salbiy natija bermaydi. Aynan tashqi muhitga moslasha olmaslik qahramonni o'z ichki ovozi tinglashga, yolg'on ko'rinishlardan voz kechishga va individual pozitsiyasini aniqlashga undaydi. Shuning uchun yolg'izlik yangi avlod she'riyatida o'zlikni yo'qotish bilan bir qatorda, o'zlikni topishning boshlang'ich nuqtasi hamdir. Begonalashuv motivining poetik shakllanishida makon alohida o'rin tutadi. Yosh shoirlarning lirik olamida shahar, yo'l, bekat, ko'cha yoki devor ko'pincha oddiy fon bo'lib qolmaydi; ular qahramonning ruhiy holatini tashqi ko'rinishga aylantiruvchi semantik vosita vazifasini bajaradi. Harakatdagi makon bilan ichki turg'unlik o'rtasidagi qarama-qarshilik, ayniqsa, ta'sirchan: atrof o'zgaradi, odamlar o'tadi, vaqt ketadi, biroq lirik subyekt o'z savollari bilan yolg'iz qolaveradi. Natijada makonning fizik mazmuni psixologik mazmunga ko'chadi. Shuningdek, zamonaviy yoshlar lirikasida begonalashuvning kommunikativ tomoni ham seziladi. Qahramon ko'pincha gapiradi, biroq uning so'zi to'liq eshitilmaydi; qaraydi, lekin boshqalar ko'rgan narsani ko'rmaydi; odamlar orasida turib ham ichki masofani his qiladi. Bu poetik vaziyat ijtimoiy aloqalarning ko'pligi bilan haqiqiy yaqinlikning kamligi o'rtasidagi paradoksni ifodalaydi. Shu nuqtada she'r insonni tashqi muhitdan ajratibgina qolmay, uning ichki ovozi saqlab qoluvchi makonga aylanadi. Demak, yoshlar she'riyatida poetik nutqning o'zi begonalashuvga qarshi ma'naviy qarshilik shakli bo'lib xizmat qiladi.

Muhokama. Bauman tasvirlagan "suyuq" ijtimoiy muhitda shaxsning tayanchlari tez o'zgaradi, munosabatlar va maqomlar barqarorligini yo'qotadi [1]. Yoshlar she'riyatidagi yo'l, o'tkinchi manzara, tun, yomg'ir va harakatdagi shahar obrazlari ana shu beqarorlikning estetik belgilariga aylanishi mumkin. Simmel ta'kidlagan metropolning ruhiy bosimi ham zamonaviy lirikaning hissiy fonida seziladi: tashqi shovqin ortidan ichki sukut kuchayadi. Shahriyor Shavkat ijodida milliy tarix va shaxsiy ruhiyat ko'pincha bir poetik maydonda tutashadi. Uning "Cho'lponga" kabi murojaatlari yangi avlodning jadid adabiy merosi bilan dialogini ko'rsatadi [9]. Cho'lpon obrazi shoir uchun faqat tarixiy shaxs emas, erkin so'z, milliy iztirob va ijodiy mas'uliyat ramzidir. Bu intertekstual aloqa orqali yosh shoir o'z ovozi avvalgi avlodning ma'naviy tajribasi bilan bog'laydi.

Tahlillar yoshlar she'riyatida Vatan tushunchasi geografik hudud bilan cheklanmasligini ko'rsatadi. U til, tarixiy xotira, ajdodlar sha'ni, madaniy meros va shaxsiy burchning mushtarak timsoliga aylanadi. Shu bois fuqarolik mas'uliyati ham tashqi siyosiy talab emas, lirik "men"ning ichki axloqiy ehtiyojidan kelib chiqadi.

Tarixiy xotiraning badiiy faollashuvida murojaat va dialog shakllari alohida rol o'ynaydi. Yosh shoir tarixiy shaxsni

faqat tasvirlamaydi, balki u bilan gaplashadi, undan ma'naviy javob izlaydi yoki zamondoshni uning qarshisiga qo'yadi. Shu yo'l bilan tarixiy obraz vaqt chegarasidan chiqib, bugungi kunning faol suhbatdoshiga aylanadi. Bunday dialogik qurilish o'tmish bilan hozirgi davr o'rtasidagi masofani qisqartiradi va tarixni abstrakt bilimdan shaxsiy tajribaga ko'chiradi.

Vatan obrazining yangi avlod she'riyatidagi muhim xususiyati ham shunda: u tantanavor ta'rif bilan emas, mas'uliyat va daxldorlik hissi bilan qadrlil. Vatan haqida gapirish qahramon uchun o'z xatti-harakatini baholash, o'z avlodining ma'naviy holatini tekshirish demakdir. Shuning uchun tarixiy qahramonlar bilan bir qatorda xiyonat, sukut, g'aflet, til, erkinlik va uyg'onish kabi tushunchalar ham poetik maydonga kiradi. Bu semalar milliy xotirani muzlatilgan meros emas, har bir avlod tomonidan qayta o'zlashtiriladigan axloqiy vazifa sifatida talqin etadi. Natijada yoshlar she'riyatidagi vatanparvarlik deklarativ pafosdan ko'ra refleksiv va mas'uliyatli mazmun kasb etadi.

Biroq yosh o'zbek shoirlari begonalashuvni G'arb modernizmidagi tayyor model sifatida takrorlamaydi. Ularning lirik qahramoni oilaviy xotira, Vatan, ko'ngil, ma'naviyat va tarix bilan bog'lanishga intiladi. Shu sababli begonalashuv ko'pincha mutlaq uzilish emas, yo'qolgan yaxlitlikni qidirish holatidir. Bu xususiyat zamonaviy o'zbek yoshlar she'riyatining milliy-estetik o'ziga xosligini belgilaydi.

Xulosa. Zamonaviy yoshlar lirikasida begonalashuv va ruhiy yolg'izlik individual hissiyot doirasidan chiqib, zamonning ijtimoiy-psixologik tajribasini ifodalovchi poetik hodisaga aylangan. Bobur Elmurodda tashqi tasvir va ichki haqiqat o'rtasidagi ziddiyat, Suhrob Ziyoda ko'ngil va vujud qarama-qarshiligi, Shahriyor Shavkatda esa parchalangan poetik nutq va o'zlikning barqaror emasligi bu holatning turli shakllarini yaratadi. Yolg'izlik shu tariqa shaxsni jamiyatdan ajratadigan ruhiy vaziyat bo'lish bilan birga, uning o'zini qayta anglashiga xizmat qiluvchi estetik mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Shuningdek, tahlillar begonalashuvning zamonaviy yoshlar lirikasida bir xil poetik model asosida emas, balki turli daraja va shakllarda namoyon bo'lishini ko'rsatadi. Ayrim she'rlarda u tashqi muhitdan masofalanish, ayrimlarida insonlar bilan mavjud kommunikativ aloqalarning ichki mazmunsizligi, boshqalarida esa lirik subyektning o'z "meni" bilan ziddiyatida namoyon bo'ladi. Demak, begonalashuvning asosiy poetik belgisi yolg'izlikning o'zi emas, balki shaxs va u yashayotgan olam o'rtasida ma'naviy-semantik masofaning yuzaga kelishidir. Yosh shoirlar poetikasida makon obrazlarining faol qo'llanilishi ham muhim xulosalardan biridir. Yo'l, ko'cha, devor, tun, osmon va bekat singari obrazlar lirik qahramonning ruhiy holatini tashqi makonda aks ettiradi. Bunda makon oddiy geografik yoki predmetli muhit sifatida emas, balki insonning ichki dunyosini modellashtiruvchi poetik maydon sifatida shakllanadi. Ayniqsa, harakatdagi tashqi makon va ruhiy turg'unlik o'rtasidagi qarama-qarshilik zamonaviy insonning ichki beqarorligini kuchli ifodalash imkonini beradi.

Begonalashuvning yana bir muhim jihati uning kommunikativ paradoks bilan bog'liqligidir. Zamonaviy insonning aloqa imkoniyatlari kengaygan sari haqiqiy ruhiy yaqinlikning muammoga aylanishi yoshlar lirikasida o'ziga xos poetik vaziyatni yuzaga keltiradi. Lirik qahramon ko'pchilik orasida bo'lishi, suhbatlashishi yoki tashqi dunyoni kuzatishi mumkin, biroq shunga qaramay, o'zining ichki tajribasini boshqalarga to'liq yetkaza olmaydi. Natijada she'riy nutqning o'zi ichki yolg'izlikni ifodalash bilan birga, uni yengib o'tishga qaratilgan kommunikativ vositaga aylanadi. Tadqiq etilgan ijodkorlar misolida begonalashuvning milliy-estetik xususiyati ham yaqqol ko'rinadi. Bobur Elmurodda ko'rish va ko'rinish o'rtasidagi tafovut, Suhrob Ziyoda ko'ngil, vujud va tabiat obrazlari orqali ichki masofa, Shahriyor Shavkatda esa poetik parokandalik va tarixiy-ma'naviy xotira bilan bog'liq izlanishlar ushbu motivning individual shakllarini yuzaga chiqaradi. Shu bilan birga, uchala ijodkor poetikasida begonalik mutlaq uzilish holatiga aylanmaydi; u ko'pincha insonning o'zligini, ma'naviy ildizlarini va jamiyatdagi o'rnini qayta izlash jarayoniga ulanadi. Shu asosda zamonaviy o'zbek yoshlar lirikasida ruhiy yolg'izlikni faqat salbiy psixologik holat sifatida baholash beryoqlama yondashuv bo'ladi. Yolg'izlik ayrim hollarda lirik qahramonning tashqi bosimlardan vaqtincha chekinishi, o'z ichki ovozi eshitishi va individual dunyoqarashini shakllantirishi uchun zarur ruhiy makon vazifasini bajaradi. Demak, begonalashuv poetik jihatdan ikki tomonlama xususiyatga ega: u bir tomondan shaxsning jamiyatdan uzoqlashuvini ifodalasa, ikkinchi tomondan uning o'zligini qayta kashf etish jarayonini faollashtiradi. Zamonaviy yoshlar lirikasidagi begonalashuv va ruhiy yolg'izlik motivlari davrning ijtimoiy o'zgarishlari, urbanizatsiya, kommunikativ munosabatlarning transformatsiyasi va shaxsning o'zligini anglash ehtiyoji bilan chambarchas bog'liq. Mazkur hodisalarning poetik ifodasi yosh o'zbek she'riyatida insonning tashqi dunyo bilan munosabatini emas, balki uning o'z ichki olami bilan murakkab dialogini ham ochib beradi. Shu jihatdan begonalashuv zamonaviy lirikaning mazmuniy muammosi bo'lish bilan birga, yangi poetik obrazlar, ramziy qatlamlar va individual nutq shakllarini yuzaga keltiruvchi muhim estetik mexanizm sifatida baholanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bauman Z. *Liquid Modernity*. – Cambridge: Polity Press, 2000. – 228 p.
2. Simmel G. *The Metropolis and Mental Life // On Individuality and Social Forms*. – Chicago: University of Chicago Press, 1971. – P. 409–424.
3. Williams R. *Marxism and Literature*. – Oxford: Oxford University Press, 1977. – 208 p.
4. Saitova N. Yosh o'zbek shoirlari: voqelikni idrok etish va uni badiiy ifodalash tendensiyalari // *Actual Problems of Humanities and Social Sciences*. – 2024.
5. Saidova R. B. Yangi davr o'zbek adabiyotida she'r konsepti, shoir siymosi tasvir va talqinlari // *Modern Science and Research*. – 2024.
6. Bobur Elmurod. She'rlar // *Xurshid Davron kutubxonasi. Yoshlar ijodi*. – 2017.
7. Suhrob Ziyoda. She'rlar // *Xurshid Davron kutubxonasi. Yoshlar ijodi*. – 2019.
8. Shahriyor Shavkat. *Ruhim qushlari* [Elektron resurs]. – Ziyonet elektron kutubxonasi.
9. Normatov U. *Ijod sehri*. – Toshkent: Sharq, 2007. – 336 b.